

2018 yil yanvar-noyabr

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-noyabr oylarida 1406,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 287,6 mln. AQSh dollarini va import 1118,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 831,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 67,0 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 69,3 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 134,3 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 85,6 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik sub'yeqtalarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-noyabr oylarida 998,0 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 226,2 mln. AQSh dollarini va import 771,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Eksport tarkibi, foizda



Import tarkibi, foizda





qilib, bunda transport xizmati 48,5 foizni va safarlar xizmati 33,5 foizni tashkil etdi.


Importda eng katta ulushni, ya'ni 49,3 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 6,7 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (54,5 foiz) eksport hajmining yarmini tashkil etdi.

Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmi dan 49,3 foizini mashina va asbob-uskunalar, 19,3 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmi dan 11,6 foizini xizmatlar eksporti tashkil






2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –831,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –144,4 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –686,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	287,6	120,7	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	156,8	121,7	54,5
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	5,1	79,7	1,8
qora va rangli metallar	9,2	169,3	3,2
mashina va asbob-uskunalar	19,1	167,0	6,7
xizmatlar	33,3	116,7	11,6
boshqalar	64,1	116,0	22,2
Import	1118,7	149,3	100
oziq-ovqat mahsulotlari	144,7	178,3	12,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	215,5	112,8	19,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	5,5	2,8m	0,5
qora va rangli metallar	79,1	2,5m	7,1
mashina va asbob-uskunalar	551,9	150,9	49,3
xizmatlar	3,8	95,7	0,3
boshqalar	118,2	161,4	10,6

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida
eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,6 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,4 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



**Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan
mamlakatlar, (foizda)**




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 134,3 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134,5 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 36,9 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 175,6 foizini tashkil qildi), 23,3 foizini mevalar (97,2 foizini), 34,2 foizini uzum (121,2 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 39,3 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (115,2 foizni) tashkil qildi.



Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 17,8 foiz), Rossiya (17,4 foiz), Vietnam (3,5 foiz), Xitoy (13,7 foiz), Turkiya (9,6 foiz), Belarus(4,0 foiz) va Eron Islom Respublikasi (5,4 foiz) hisoblanadi.

Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiylajmidan 46,7 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishslash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishslash eksporti miqdori 174,5 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139,7 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiylajmidan mevalarning miqdori 29,8 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,2 foizni, sabzavotlar 81,6 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196,5 foizni), uzum 54,4 ming tonnani (109,2 foizni), yer yong'oq 8,3 ming tonnani (4,7 martani), qovun va tarvuz 474,2 tonnani (41,1 foizni) tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
Statistikasi bo'limi.
Tel: 71-230-85-23**